

# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

1-МАХСУС СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ  
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-1

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES  
SPECIAL ISSUE-1



# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES  
№ SI-1 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2024-SI-1>

**Бош муҳаррир:**  
**Главный редактор:**  
**Chief Editor:**  
**Сеитов Азамат Пулатович**  
доктор социологических наук  
(Doctor of sociology, DSc)

**Бош муҳаррир ўринбосари:**  
**Заместитель главного редактора:**  
**Deputy Chief Editor:**  
**Сабилова Умида Фархадовна**  
доктор социологических наук  
(Doctor of sociology, DSc)

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

22.00.01–Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.  
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.  
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

**Бекмурадов Мансур Бобомурадович**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Каланов Комил Куллахматович**  
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Убайдуллаева Раиса Турсуновна**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Негматова Шахзода Шухратовна**  
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)  
**Исмаилов Алишер Агзамович**  
доктор экономических наук, (Узбекистан)

**Щепилова Галина Германовна**  
доктор философских наук, профессор (Россия)  
**Рожанский Михаил Яковлевич**  
кандидат философских наук (Россия)  
**Маматов Нормурат**  
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)  
**Камалова Хатира Сабыровна**  
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Фофуров Низомжон Октябрович**  
кандидат исторических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.02–Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи  
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни  
Social structures, social institutions and way of life

**Умаров Абсалом Адилевич**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Холбеков Абдугани Жуманазарович**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)  
**Акулич Мария Михайловна**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)  
**Каримов Бобир Шаропович**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Сабиров Алишер Сабирович**  
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Ахмедова Феруза Медетовна**  
доктор философии по социологическим наукам (PhD)  
(Узбекистан)

**Антонио Алонсо Марсос**  
доктор политических наук, профессор (Испания)  
**Фадеева Любовь Александровна**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)  
**Виктор Агаджаньян**  
доктор философии по социологическим наукам (США)  
**Тагиева Гулсум Гафуровна**  
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)  
**Муйдинова Моҳира Муқимжоновна**  
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)  
**Ходжаев Собир Джумаевич**  
доктор философии по социологическим наукам (PhD)  
(Узбекистан)  
**Алимухамедова Нодира Ядгаровна**  
доктор философии по социологическим наукам (PhD)  
(Узбекистан)

22.00.03–Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.  
Социология социального сознания и социального процесса.  
Sociology of social consciousness and social process

**Аликариев Нуритдин Сапаркариевич**  
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)  
**Матибаев Тасполат Балтабаевич**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Николов Стефан**  
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)  
**Бурнашев Рустам Ренатович**  
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)  
**Пармонов Фарход Ярашевич**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Акрамов Хусан Фуркатович**  
доктор философии по социологическим наукам (PhD)  
(Узбекистан)

**Ли Ци**  
доктор исторических наук, профессор (Китай)  
**Сухомлинова Марина Валерьяновна**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)  
**Қаюмов Қахрамон Нозимжонович**  
доктор философии по социологическим наукам (PhD)  
(Узбекистан)  
**Доспанова Дилара Уракбаевна**  
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Рахимбаева Дилбархон Абдулхамитовна**  
кандидат философских наук, доцент (Узбекистан)  
**Якубов Ильдар Харасович**  
кандидат политических наук, и.о. доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

## МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

<b>1. Сеитов Азамат</b> РАЗВИТИЕ СОЦИОЛОГИИ В УЗБЕКИСТАНЕ: ОТ ПРОШЛОГО К ПЕРСПЕКТИВНОМУ БУДУЩЕМУ.....	5
<b>2. Sabirova Umida</b> SOTSIOLOGIK MONITORING YARATISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.....	12
<b>3. Алексеева Виктория</b> КОНЦЕПЦИИ ГЕНДЕРНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ В АНАЛИЗЕ ДИНАМИКИ СОЦИАЛЬНОЙ МОБИЛЬНОСТИ.....	21
<b>4. Kayumov Kaxramon</b> KICHIK SHAHARLARNI ILMIY O'RGANISHNING SOTSIOLOGIK JIHLTLARI.....	30
<b>5. Alikariyeva A'loxon</b> TA'LIM SIFATI BOShQARUVIGA NAZARIY YONDASHUVLAR TAHLILI.....	36
<b>6. Mannanova Nilufar</b> DAVLAT XIZMATCHILARINI MERITOKRATIK YONDOSHUV ASOSIDA TANLASH – JAMIYATDA ADOLAT TAMOIYILI QAROR TOPISHINING MUHIM MASALASI SIFATIDA.....	44
<b>7. Mo'minov Zokirjon</b> IJTIMOIY MOBILLIK OMILINI TADQIQ ETISHNING METODOLOGIK JIHLTLARI.....	51
<b>8. Jiyanmuratova Gulnoz</b> YOSHLARNING SIYOSIY INSTITUTLARGA NISBATAN ISHONCHI MUAMMOSI: NAZARIY ASOSLAR.....	58
<b>9. Сеитов Мансур</b> МОЛОДЕЖНАЯ ПОЛИТИКА В ФОРМИРОВАНИИ ЖИЗНЕННЫХ ПОЗИЦИЙ МОЛОДЕЖИ: ОТЕЧЕСТВЕННЫЙ ОПЫТ.....	66
<b>10. Узакова Зарина</b> СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ: ОТ СОЦИАЛЬНОЙ К БИОПСИХОСОЦИАЛЬНОЙ МОДЕЛИ ИНВАЛИДНОСТИ.....	74
<b>11. Ziyayeva Xolida</b> AGRESSIV XULQ-ATVORNI O'RGANISHGA QARATILGAN NAZARIYALAR TAHLILI.....	80
<b>12. Imomova Nozimaxon</b> MEHNAT MIGRATSIIYASINI VUJUDGA KELISHI VA TRANSFORMATSIYALASHUVINING IJTIMOIY OMILLARI.....	88
<b>13. Shokirov Shaxrizod</b> HUQUQBULARLIK VA JINOYATCHILIKNI OLDINI OLISHDA JAMOATCHILIK BILAN HAMKORLIKDA ISHLASH.....	93

<b>14. Ixtiyarov Farxod</b> INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH – IJTIMOYIY BARQARORLIK VA TARAQQIYOT OMILI.....	102
<b>15. Akramov Xasan</b> YANGI O‘ZBEKISTONNING SPORT STRATEGIYASINI SHAKLLANTIRISHDA NORMATIV-HUQUQIY BAZASINING SOTSIOLOGIK TAHLILI.....	108
<b>16. Kalanova Sabohat</b> JAMIYATDA AVLODLAR ALMASHINUVI JARAYONLARI IJTIMOYIY HODISA SIFATIDA.....	117
<b>17. Axrorov Zohidjon</b> O‘ZBEKISTONDA IJTIMOYIY HODIM KASBINING JORIY ETILISHI, IJTIMOYIY SIYOSATNING AMALIY NATIJASI SIFATIDA.....	126
<b>18. Xujanov Zafar</b> KAMBAG‘ALLIK SABABLARI VA UNI QISQARTISHGA TA‘SIR ETUVCHI OMILLARI.....	132
<b>19. Turanazarov Umid</b> KASBIY KOMPETENTLIK MOHIYATI VA RIVOJLANTIRISHNING OMILLARI.....	138
<b>20. Kaxarova Nilufar</b> SHAXAR MEGOPOLISIDAGI AYOLLAR MEHNAT MIGRATSIYASINING MUAMMOLARI VA IMKONIYATLARI.....	145
<b>21. Хакимова Анора</b> ОСОБЕННОСТИ РАБОТЫ С МОЛОДЫМИ СПЕЦИАЛИСТАМИ В ОРГАНИЗАЦИИ.....	154
<b>22. A‘zamxonov Saidabzalxon</b> TALABALAR MUSTAQIL TA‘LIM OLIHINI OSHIRISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	163
<b>23. Ro‘zimatov Elbek</b> VOLONTYORLIK HARAKATINING NAZARIY TAHLILI.....	170
<b>24. Masharipov Baxtiyar</b> SHAHAR INFRATUZILMASINING FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI.....	177
<b>25. Muzaffarov San‘atbek</b> VOLONTYORLIK HARAKATI – EZGULIK VAKSINASI.....	185
<b>26. Yo‘ldashev Shoxrux</b> YOSHLAR BUGUNGI KUN RIVOJLANISHI SHAROITIDA MADANIY-HUQUQIY MUHITNING SUBYEKTI VA OBYEKTI SIFATIDA.....	190


# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

## ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

**Yo'ldashev Shohrux,**

О'zbekiston Milliy universiteti  
Sotsiologiya kafedrasida tayanch doktoranti,  
e-mail: shohruh.yoldashev.97@mail.ru

### YOSHLAR BUGUNGI KUN RIVOJLANISHI SHAROITIDA MADANIY-HUQUQIY MUHITNING SUBYEKTI VA OBYEKTI SIFATIDA

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.10800140>

#### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada O'zbekiston jahon hamjamiyatida mustahkam o'rin egallash maqsadida demokratik huquqiy davlat barpo etish va adolatli fuqarolik jamiyatini shakllantirish yo'lidan ishonch bilan bormoqda. Mamlakatda iqtisodiyot, siyosat, davlat qurilishi, huquq tizimi va jamiyatni ma'naviy o'zgartirish sohasida keng ko'lamli islohotlar boshlandi. Amalga oshirilayotgan islohotlarning qonunchilik bazasi yaratildi. Jumladan, qadimgi Xitoy, qadimgi Hind, arab-musulmon sivilizatsiyalari hamda Yevropa renessansidan to zamonaviy davrgacha xususan sobiq sovet zamonidagi ijodkorlar sotsial qiyofasining evolyutsiyasiga diqqat qaratiladi. Shuningdek, musulmon Sharqi shoir ijodkorlarining sotsial qiyofasi transformatsiyasi, ularning jamiyat madaniy hayotidagi roli tadqiq etiladi. Qolaversa, yoshlarning siyosiy hayotidagi faolligi, jamoatchilik fikri yetakchisi sifatidagi o'rniga ham e'tibor qaratiladi.

**Kalit so'zlar:** huquqiy madaniyat, sotsial subyekt, jamiyat, sotsiomadaniyat, axborotni uzatish, ijtimoiy elita, renessans, Sharq sivilizatsiya, G'arb sivilizatsiyasi.

**Юлдашев Шохрух,**

Национальный университет Узбекистана  
Базовый докторант кафедры Социологии,  
e-mail: shohruh.yoldashev.97@mail.ru

### МОЛОДЕЖЬ КАК СУБЪЕКТ И ОБЪЕКТ КУЛЬТУРНО-ПРАВОВОЙ СРЕДЫ В УСЛОВИЯХ СОВРЕМЕННОГО РАЗВИТИЯ

#### АННОТАЦИЯ

Узбекистан, чтобы занять прочное место в мировом сообществе, уверенно движется к становлению демократического правового государства и формированию справедливого гражданского общества. В стране начались масштабные реформы в сфере экономики, политики, государственного строительства, правовой системы и нравственного преобразования общества. Создана правовая база реализуемых реформ. В частности, уделяется внимание эволюции социального образа художников от древнекитайской, древнеиндийской, арабо-мусульманской цивилизаций, европейского Возрождения до современной эпохи, особенно в постсоветское время. Изучается трансформация социального

образа поэтов мусульманского Востока, их роль в культурной жизни общества. Кроме того, уделяется внимание активности молодежи в политической жизни и ее положению как лидеров общественного мнения.

**Ключевые слова:** правовая культура, социальный субъект, общество, социокультура, передача информации, социальная элита, ренессанс, восточная цивилизация, западная цивилизация.

**Yoldashev Shokhrukh,**  
National University of Uzbekistan  
Basic doctoral student of the Department of Sociology,  
e-mail: shohruh.yoldashev.97@mail.ru

## YOUTH AS SUBJECT AND OBJECT OF THE CULTURAL-LEGAL ENVIRONMENT IN THE CONDITIONS OF TODAY'S DEVELOPMENT

### ABSTRACT

Uzbekistan is confidently moving towards the establishment of a democratic legal state and the formation of a fair civil society in order to take a strong place in the world community. Large-scale reforms in the field of economy, politics, state building, legal system and moral transformation of society have started in the country. The legal basis of the reforms implemented has been created. In particular, attention is paid to the evolution of the social image of artists from the ancient Chinese, ancient Indian, Arab-Muslim civilizations, and the European Renaissance to the modern era, especially in the former Soviet era. Also, the transformation of the social image of the poets of the Muslim East, their role in the cultural life of society is studied. In addition, attention to the activity of young people in political life and their position as leaders of public opinion is paid.

**Key words:** legal culture, social subject, society, socioculture, information transfer, social elite, renaissance, Eastern civilization, Western civilization.

### KIRISH

Yangi O'zbekiston strategiyasining bosh g'oyasi fuqarolik jamiyati institutlari rolini kuchaytirish, inson huquqlarini himoya qilish, kambag'allikni qisqartirish, har bir shaxsni kafolatli daromad manbai bilan ta'minlash hamda barqaror ekologik rivojlanishga erishishdan iborat. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi yettita ustuvor yo'nalishni qamrab olgani, mohiyatiga ko'ra, ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish masalasi ana shu ustuvor yo'nalishlardan biri etib belgilangani bilan Harakatlar strategiyasidan ajralib turadi. Shu bois, ushbu hujjatda belgilangan ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash bilan bog'liq maqsad-vazifalar xususida so'z yuritish maqsadga muvofiq. "Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir. Biz yangi O'zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi, bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi, ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyat" [1].

Ushbu fikrlar davlatimiz rahbarining mazkur yig'ilishda so'zlagan nutqining mazmun-mohiyati va ahamiyati keyinchalik Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida o'z aksini topdi. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi "Inson qadri uchun 100 ta maqsad"dan iborat bo'lib, shundan 8 tasi, ya'ni 71-78-maqsadlar bevosita ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash masalalariga taalluqli hisoblanadi. Taraqqiyot strategiyasini 2022-yilda amalga oshirishga doir Davlat dasturida 398 ta band bo'lib, shuning 29 tasi, ya'ni 257-285-bandlar aynan ma'naviyat sohasiga oid chora-tadbirlardir [2].

### METODOLOGIYA

Inson huquqlari bo'yicha Milliy strategiya doirasida gender tenglik, so'z va din erkinligini ta'minlash, fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish borasida aniq choralar qabul qilingan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 4-martdagi "2021-2025-yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish Konsepsiyasi" to'g'risidagi PF-6181-sonli Farmoni, O'zbekiston

Respublikasining 2021 yil 5 iyuldagi “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi yangi O‘RQ-699-son Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatining 2021-yil 28-maydagi “2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi” haqidagi SQ-297-IV sonli Qarori, O‘zbekiston Respublikasining Inson huquqlari sohasida xalqaro majburiyatlariga rioya etilishi bo‘yicha Parlament komissiyasining tashkil etilishi hamda O‘zbekistonda 2025-yilgacha davlatning yoshlarga oid siyosatini rivojlantirish Konsepsiyasini amalga oshirilishi, BMTning “Yoshlar – 2030” strategiyasida bayon etilgan “Yoshlar bilan ishlash yoshlar manfaatida” prinsipiga asoslanganligi kabi hujjatlar shular jumlasidandir.

Inson huquqlari bo‘yicha Milliy strategiyani amalga oshirishda fuqarolik jamiyati institutlari faol qatnashmoqda. Inson huquqlari sohasida biznes hamjamiyatning mas‘uliyatini, jumladan, “Biznes va inson huquqlari” Milliy harakatlar rejasini ishlab chiqish yo‘li orqali rivojlantirish va samaradorlikni oshirish ishlari olib borilmoqda.

### ASOSIY QISM

O‘zbekiston inson huquqlari bo‘yicha BMTning shartnomaviy organlari tizimini mustahkamlash yuzasidan hukumatlararo jarayonlarni qo‘llab-quvvatlaydi va davlatning hisobdorlik qobiliyatini rivojlantirish hamda shartnomaviy organlarning mulohazalarini bajarishga intiladi. O‘zbekiston Respublikasi BMTning shartnomaviy organlariga milliy ma‘ruzalari (41 ta ma‘ruza) ni o‘z vaqtida taqdim etmoqda. Xususan, joriy yilning fevralida Ayollarga nisbatan kamsitishni bartaraf etish qo‘mitasi O‘zbekistonning oltinchi davriy ma‘ruzasini, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar bo‘yicha qo‘mitasi uchinchi davriy ma‘ruzasini eshitdi. Ma‘lumki, 2020-yil 24-fevralda BMT Bosh kotibi A.Guterrish “Yuksak intilish: inson huquqlari uchun harakatga chaqiriq” degan tashabbusni ilgari surdi. “Chaqiriq”ning eng muhim mohiyatidan biri – fuqarolik jamiyatini kuchaytirish, gender tenglikni ta‘minlash, erkak va ayollarning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy hayotda, shuningdek, axborot erkinligida tengligiga erishish zaruriyati hisoblanadi.

BMTning mazkur tashabbusi O‘zbekistonning ayni sohalarda amalga oshirayotgan islohotlari bilan hamohang. Zero, inson huquqlarini ta‘minlamasdan turib, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy va madaniy-gumanitar taraqqiyoti yo‘lidagi muammolarini yechish imkonsiz. Inson huquqlari bo‘yicha BMT kengashi butun dunyo bo‘ylab mazkur sohadagi vaziyatni nazorat qilar ekan, davlat rahbarlariga tavsiyalarini berib boradi. Ushbu xalqaro organga kirgan har bir mamlakat inson huquqlari sohasida namuna bo‘lishi kerak. Inson huquqlari bo‘yicha kengashga kirgan va e‘tirofqa sazovor bo‘lgan O‘zbekiston o‘z majburiyatlarini mas‘uliyat bilan bajarmoqda.

Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi Harakatlar strategiyasining mantiqiy davomidir. Taraqqiyot o‘zgarishlarining yangi tarixiy bosqichda davom ettirilishi ko‘zda tutilgan holda, Taraqqiyot strategiyasiga 2 ta yangi ustuvor yo‘nalish qo‘shildi. Bulardan biri – ma‘naviy taraqqiyotni ta‘minlash bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchisi – O‘zbekistonning dunyoda yuz berayotgan global muammolarga munosabati negizida belgilangan yangi ustuvor yo‘nalishdir [3]. Taraqqiyot strategiyasida asosiy e‘tibor, bir tomondan, fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga doir qonunlar, kodekslar, konsepsiya va dasturlar qabul qilinishiga qaratilgan. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida mamlakatimizni keyingi besh yilda rivojlantirishning 7 ta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha aks etgan joriy demokratik islohotlar ko‘lami va miqyosi asl voqelikka yanada aniqlik kiritadi, deb o‘ylaymiz. Ushbu muhim hujjatda quyidagi ulug‘ maqsadlar aniq belgilangan:

inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish;

mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish;

milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘sish sur‘atlarini ta‘minlash;

adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish;

ma‘naviy taraqqiyotni ta‘minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish;

milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish;

mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish [4].

Demak, dastlab Harakatlar strategiyasida, so'ng Taraqqiyot strategiyasida O'zbekiston bajarishni o'z zimmasiga olgan BMT Barqaror taraqqiyot maqsadlarini mamlakatimiz hayotiga tatbiq etishning aniq taktika va strategiyalari belgilab berildi. Boshqacha aytganda, O'zbekiston tashqi xalqaro munosabatning teng huquqli a'zosi sifatida BMT Barqaror taraqqiyot maqsadlari bilan hamohang holda rivojlanish yo'liga tushib olib, bu borada o'ziga xos o'rni va ahamiyatini, butun dunyoga ko'rsata oldi. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi ushbu muhim taraqqiyot jarayon uzluksiz davom etayotganidan dalolat.

Yangi O'zbekistonda mutlaqo yangi milliy huquqiy tizim shakllanmoqda. Bu davrda "inson, uning huquqlari, erkinliklari, ayniqsa, qadri – eng muhim qadriyat" degan tamoyil e'tirof etilmoqda. Shu munosabat bilan milliy qonunchilik va huquqiy amaliyotda "shaxs – jamiyat – davlat" tamoyilini mustahkamlash kerak. Zero, Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida yillar davomida amal qilib kelgan "davlat – jamiyat – inson" tamoyili "inson – jamiyat – davlat" tamoyiliga o'zgartirilmoqda. Bundan tashqari barcha davlat organlari faoliyatida "xalq dardiga quloq solish", muammolarni joyida hal etish va xalqni rozi qilish bo'yicha samarali ishlar qilinmoqda. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida «xalq bilan ochiq muloqot mexanizmini yanada takomillashtirish, muhim qarorlarni jamoatchilik fikrini inobatga olgan holda qabul qilish amaliyotini kengaytirish, davlat organlariga kelib tushgan murojaatlarni ko'rib chiqish jarayonini raqamlashtirish, murojaatlarni tezkor va sifatli ko'rib chiqilishini ta'minlash ko'zda tutilgan. Eng asosiysi, "Davlat xalqqa xizmat ko'rsatishi shart" g'oyasini tatbiq etishni nazarda tutuvchi "Xalqchil davlat" milliy dasturi ishlab chiqildi.

Mamlakatimizda Yangi O'zbekistonni bunyod etish bo'yicha amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ishlarga doir yana ko'plab misollarni keltirish mumkin. Eng muhimi, bugungi kunda O'zbekistonning jahonda nufuzi o'sib borayotgani – bu nafaqat davlatning har tomonlama puxta o'ylangan, qat'iy va mustaqil tashqi siyosati natijasi, balki mamlakatda demokratik va bozor islohotlarini amalga oshirishda erishilayotgan yutuqlarning xalqaro hamjamiyat tomonidan e'tirof etilishi hamdir. Yangi O'zbekiston rahbari – o'z yo'lidan borish huquqini izchil himoya qilayotgan zamonamizning sanoqli siyosatchilaridan biridir. Bu mustaqil taraqqiyot yo'lining mohiyati:

birinchidan, jamiyatning o'ziga xos tarixiy shartsharoitlari, uning milliy, diniy va madaniy xususiyatlari puxtalik bilan hisobga olinganida;

ikkinchidan, iqtisodiy rivojlanish hamda taraqqiyotning an'anaviy axloqiy va madaniy qadriyatlar bilan uyg'unligida;

uchinchidan, sog'lom fikrning tajribaga asoslanmagan nazariyadan ustunligida;

to'rtinchidan, mafkuralashgan konsepsiyalar ustidan vatanparvarlik, pragmatizm va ijodiy amaliyotning ustunligida yaqqol namoyon bo'lmoqda [5].

Inson qadrini yuksaltirish va uning sha'ni, huquq hamda erkinliklarini hurmat qilish mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning ustuvor yo'nalishidan biri hisoblanadi. O'zbekistonda inson huquqlarini uning millatiga, diniga, ijtimoiy ahvoriga, siyosiy va boshqa e'tiqodiga qarab cheklashlar yo'q. Zotan, insonni ulug'lash, uni muhofaza qilish va har tomonlama kamol toptirish keng ko'lamli islohotlarimizning diqqat-markazidagi masala bo'lib turibdi.

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining hayotga tizimli va izchil tatbiq etilishi demokratik islohotlarni yangi sifat bosqichiga olib chiqmoqda. Bu, birinchi o'rinda, "Inson qadri uchun" degan ustuvor tamoyilni to'la ro'yobga chiqarishni nazarda tutadi. Qayd etish kerakki, "inson qadri" – fuqarolarning tinch va xavfsiz hayotini, asosiy huquq va erkinliklarini, bosqichma-bosqich munosib turmush sharoitini ta'minlash hamda, zamonaviy infratuzilmani yaratish, mamlakatning har bir fuqarosi uchun malakali tibbiy xizmat ko'rsatish, sifatli ta'lim, ijtimoiy himoya shuningdek, sog'lom ekologik muhitni yaratish demakdir. Bunga, eng avvalo, "Yangi O'zbekiston – xalqchil va insonparvar davlat" g'oyasi va "inson – jamiyat – davlat" tamoyilini hayotga faol tatbiq etish, Prezident, parlament va hukumat o'rtasida vakolatlarni aniq taqsimlash, hokimiyatlar bo'linishi tizimida o'zaro va muvozanatni mustahkamlash, erkin va adolatli fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, zamonaviy xalqaro hamjamiyatda o'zining munosib o'rnini topish orqali erishiladi.

Fuqarolik jamiyati institutlari, parlamentarizm, ko'ppartiyaviylik tizimini shakllantirish va rivojlantirish haqiqiy demokratiya timsoli hisoblanadi. Taraqqiyot strategiyasida joylardagi muammolarni hal etishda mahalliy boshqaruv hokimiyati organlarining roli va mas'uliyatini yanada

oshirish, davlat funksiyalarining aksariyat qismini markazdan hududlarga o'tkazish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar belgilangan [6]. Xususan, hududlarni rivojlantirishda mahalliy Kengashlarning rolini oshirish, fuqarolik institutlarining samarali faoliyat yuritishi uchun zarur shart-sharoit yaratishga e'tibor qaratiladi. Birgina 2021-yilning o'zida mahalliy Kengashlar tomonidan fuqarolarning 29 mingdan ortiq muammolari ijobiy hal etilganligini inobatga oladigan bo'lsak, ular faoliyatining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarini mustahkamlash "Xalqparvar davlat" g'oyasini yanada keng hayotga tatbiq etishga xizmat qiladi [7].

O'zbekiston demokratik huquqiy davlat barpo etish va adolatli fuqarolik jamiyatini shakllantirish yo'lidan ishonch bilan bormoqda, jahon hamjamiyatida mustahkam o'rin egallaydi. Barqarorlik va tartib, millatlararo totuvlik va fuqarolar hamjihatligi yosh davlatga ishonch va hurmat qozondi. Mamlakatda iqtisodiyot, siyosat, davlat qurilishi, huquq tizimi va jamiyatni ma'naviy o'zgartirish sohasida keng ko'lamli islohotlar boshlandi. Amalga oshirilayotgan islohotlarning qonunchilik bazasi yaratildi. Ijtimoiy-siyosiy hayotning huquqiy asoslari izchil mustahkamlanib, takomillashtirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasida Adliya vazirligi tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyati va natijalarini aholiga yetkazish, ularning bajarilishi va bajarilishini nazorat qilish, qabul qilingan hujjatlarning mazmun-mohiyatini oydinlashtirish, bu boradagi ishlarga ko'maklashish tizimini joriy etish, shu tariqa Yangi O'zbekistonda aholi o'rtasida huquqiy madaniyatni yuksaltirish zarurligini ta'kidladi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda davlat boshqaruvi, milliy huquq tizimini tubdan isloh qilish, jamiyatda huquqiy madaniyatni shakllantirish va malakali kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilganiga qaramay, davlatimiz rahbari o'z nutqida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan, pirovard natijada xalq farovonligini yuksaltirish, ularning faoliyatini amalga oshirish uchun qulay shart-sharoit yaratishga qaratilgan o'zgarishlarning mazmun-mohiyatidan xabardorlikni oshirish zarurligiga e'tibor qaratdi.

Keng aholining siyosiy jarayonlarga jalb etilishi ham davlat organlari bilan muloqotni kuchaytirishga, ham kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Shuni ta'kidlash kerakki, zamonaviy sharoitda huquqiy tartibga solish samaradorligiga turli omillar ta'sir ko'rsatadi. Ular orasida fuqarolarning huquqiy ongining yuqori darajasi katta ahamiyatga ega bo'lib, bu ularning davlatda amalda bo'lgan huquqiy normalarni to'g'ridan-to'g'ri tushunishiga, ularning huquqiy ongining sifatiga bog'liq bo'lib, u qonun va huquqni to'g'ri saqlash kafolati bo'lib, jamiyatdagi tartib, huquq hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilinishining kafolati, samarali qonunchilikni yaratish, shuningdek, mutanosib faoliyat yuritishning zarur sharti, qonunni amalga oshirish mexanizmi, shu jumladan, ularni amalga oshirishga mas'ul bo'lgan organlar xizmat qiladi. Aholi o'rtasida huquqiy madaniyatni yuksaltirish va aholining huquqiy ongi, jamiyat huquqiy madaniyati yuksak darajada rivojlanganligining ko'rsatkichi Yangi O'zbekistonda huquqiy davlat barpo etishning muhim shartidir.

Davlatimiz rahbari o'z fuqarolarining huquqiy ongini yuksaltirish muammosiga munosib e'tibor qaratib, mamlakatimiz aholisining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini mustahkamlash, huquqiy savodxonlikni shakllantirishning barqaror amaliyoti uchun zamin yaratishga munosib hissa qo'shmoqda. Islohotlar jarayonida faol ishtirok etayotgan aholining aynan mana shu toifasi keyinchalik o'zgarishlarni amalga oshirish, kuchli fuqarolik jamiyatining barqaror faoliyat yuritishi, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining vazifalari hamda mexanizmlarini amalga oshirishda mas'uliyat, tushunish bilan ishtirok etib kelmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahbarligida amalga oshirilayotgan izchil islohotlar jarayonida shaxs va oila huquq va manfaatlarini himoya qilish, aholi o'rtasida huquqiy madaniyatni yanada yuksaltirishda Yangi O'zbekistonda huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurishning muhim sharti sifatida belgilangan. Aholi o'rtasidagi yuksak huquqiy madaniyat demokratik jamiyat asosi, huquqiy tizimning yetuklik ko'rsatkichidir. Bu jamiyatdagi turli xil hayotiy jarayonlarni tartibga solishga faol ta'sir ko'rsatadigan, fuqarolarning, barcha ijtimoiy guruhlarining birlashishiga, jamiyat yaxlitligini, undagi tartibni qo'llab-quvvatlash va mustahkamlashga hissa

qo'shadigan omildir. Qonunga hurmat - huquqiy jamiyatning, siyosiy va huquqiy tizimlarning samarali faoliyat yuritishining asosiy talablaridan biridir.

Huquqiy madaniyat umumiy madaniyatning ajralmas qismidir. Insonlar ongida huquqiy bilimga ega bo'lgan, uni amalda qo'llashni bilgan kishigina madaniyatli va bilimli hisoblanishi mumkin, degan ishonch mustahkam o'rnatilishi kerak. Jamiyat va davlat taraqqiyotining hozirgi holati huquqiy munosabatlarning barcha ishtirokchilarining huquqiy madaniyatini, huquqiy savodxonligini har tomonlama yuksaltirishni taqozo etmoqda. Huquqiy madaniyat huquqiy bilimlar, huquqiy ishonch va faol amaliy faoliyat birikmasi sifatida jamiyat va davlat oldida turgan vazifalarni muvaffaqiyatli hal etishni ta'minlashga qaratilgan. Demak, normativ-huquqiy hujjatlarni tarqatish tizimini tubdan takomillashtirish, aholi va ijrochilarni qonun hujjatlarining mazmun-mohiyati, shuningdek, ahamiyati to'g'risida huquqiy xabardor qilish sifatini oshirish maqsadida Adliya vazirligiga qonun hujjatlarini ishlab chiqish bilan birga ularning ijrosini nazorat qilish bo'yicha qo'shimcha vazifa yuklatilgan bo'lib, uni amalga oshirishni tashkil etishning tubdan yangi yondashuvlari ishlab chiqilmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda quyidagi takliflarni berib o'tmoqchimiz:

aholining huquqiy ong va huquqiy madaniyatini yanada yuksaltirish uchun mazkur yo'nalishdagi davra suhbatlari hamda oquv seminarlari yoki ilmiy-amaliy konferensiyalarni muntazam ravishda otkazib borishni yo'lga qo'yish;

jamoat joylarida Konstitutsiya maydonlarini yaratish va uni Konstitutsiya va qonunlar aks ettirilgan zamonaviy targ'ibot vositalari bilan ta'minlash, unda aholining huquqiy ongini yaxshilaydigan, huquqiy madaniyatini oshiradigan lavhalarini keltirish zarur, ta'lim muassasalarida huquqiy savodxonlikni oshirish eng dolzarb masala hisoblanadi, shu sababli umumta'lim maktablarida boshlang'ich ta'lim tizimidan boshlab, bolalar va oquvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, huquqiy ong qonun va huquqiy madaniyatni shakllantirishga qaratilgan Konstitutsiya va inson huquqlarini organish boyicha darslar va darsliklar tashkil qilish, yoshlarning huquqiy bilim va savodxonlik darajasini yuksaltirib borish.

#### **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, huquqiy ong va huquqiy madaniyat bosqichma- bosqich shakllanib boradigan jarayon hisoblanadi. Huquqiy madaniyatning yuksalishi esa qonunga itoat tuyg'usini rivojlanishiga olib keladi. Hozirgi kunda mazkur masala davlat siyosati darajasiga kotarilmoqda, shu maqsadda Yangi O'zbekistonda aholi o'rtasida huquqiy madaniyatni yuksaltirish, yoshlarning huquq sohasiga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, ularni huquqiy jihatdan yetuk va barkamol avlod etib tarbiyalash asosiy maqsad va muddaolardan biri hisoblanadi. Jamiyatda o'z haq-huquqini biladigan va qonun-qoidalarga og'ishmay amal qiladigan fuqarolar huquqiy davlatning poydevoridir [8]. Yangi O'zbekistonda yoshlarga yaratilgan imkoniyatlar va shartsharoitlar ushbu ezgu maqsad yo'lida xizmat qiladi. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi esa bunga huquqiy zamin yaratib, poydevor vazifasini o'taydi. Yoshlarning katta qismi iqtisodiy rivojlanish dasturiga mos tushgan va uning rivojlanishiga o'z hissasini qo'shmoqda. Bu ijtimoiy munosabatlarga kiritilayotgan o'zgarishlarning har doim ham aniq emas, balki unchalik muhim bo'lmagan natijasi orqali namoyon bo'lmoqda.

#### **Adabiyotlar/ Литература/ References:**

1. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi – B. 294.
2. Saidov A. Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi: iqtisodiyot va ma'naviyat uyg'unligi yo'lida//[https://parliament.gov.uz/uz/events/opinion/37879/?sphrase\\_id=8032635](https://parliament.gov.uz/uz/events/opinion/37879/?sphrase_id=8032635).
3. Saidov A. Yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lida//[https://parliament.gov.uz/uz/events/opinion/39099/?sphrase\\_id=8199649](https://parliament.gov.uz/uz/events/opinion/39099/?sphrase_id=8199649)
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni // <https://lex.uz/docs/5841063>.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni // <https://lex.uz/docs/5841063>
6. [file:///C:/Users/yuldashev\\_sh/Downloads/yangi-o-zbekiston-taraqqiyot-strategiyasida-jamiyat-barqarorligini-ta-minlashning-ijtimoiy-omillari.pdf](file:///C:/Users/yuldashev_sh/Downloads/yangi-o-zbekiston-taraqqiyot-strategiyasida-jamiyat-barqarorligini-ta-minlashning-ijtimoiy-omillari.pdf)
7. Saidov A. Zamonaviy konstitutsionalizm: Milliy va xorijiy tajriba // <https://xs.uz/uzkr/post/zamonavijkonstitutsionalizm-millij-va-khorizhij-tazhriba>
8. [file:///C:/Users/yuldashev\\_sh/Downloads/ZDPP2206.pdf](file:///C:/Users/yuldashev_sh/Downloads/ZDPP2206.pdf)

# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

1-МАХСУС СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ  
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-1

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES  
SPECIAL ISSUE-1

MAQOLADA KELTIRILGAN DALILLARNING TO'G'RILIGI UCHUN MUALLIF MAS'ULDIR | АВТОР НЕСЕТ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ ЗА ДОСТОВЕРНОСТЬ ФАКТОВ ИЗЛОЖЕННЫХ В СТАТЬЕ

**Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**  
ООО Тадқиқот город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000